


ISTE'MOL BOZORI

(2019-yil yanvar- oktabr oylari)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2114,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,8 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 113,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 134,6%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2000,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 4,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 203,9 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 % ga o'sgan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)



Chakana savdo tovar aylanmasida katta hajmga ega bo'lgan Guliston shahri (770,2 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (362,3 mlrd.so'm), Yangiye shahri (205,4 mlrd.so'm), Mirzaobod tumani (201,5 mlrd.so'm), ijobiy tasirini ko'rsatmoqda.


Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 34,6 % ga o'sdi va 113,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,4 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 2000,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 4,5 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,6 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi ulishi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi 2015-yil yanvar-oktabr oylari 88,9 % ni tashkil qilgan bo'lsa 2019-yilga kelib kichik tadbirkorlikning ulishi 94,6 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulishi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Xovos t (99,4 %), Shirin sh (99,1 %), va Boyovut (98,4%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 5,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Yangiyer shahri (8,9 %), Guliston shahrida (7,5 %) va Sirdaryo tumani (5,0 %) kuzatildi.

Chakana savdo aylanmasi va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tovar aylanmasidagi hajmi

	Chakana savdo aylanmasi (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	2114,2	105,8	2000,8	104,5
Guliston sh.	770,2	105,9	712,4	104,3
Shirin sh	31,3	103,6	31,1	104,2
Yangiyer sh	205,4	107,5	187,1	103,6
tumanlar:				
Boyovut	109,1	100,5	107,4	103,2
Guliston	82,3	106,5	80,0	104,4
Mirzaobod	201,5	110,6	194,7	108,9
Oqoltin	108,8	105,2	106,4	103,6
Sardoba	92,4	105,8	90,2	104,0
Sayxunobod	70,9	101,1	67,7	104,1
Sirdaryo	362,3	105,3	344,2	104,3
Xovos	80,0	103,0	79,6	103,4

Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, yanvar-oktabr oylari (%)da.



2019-yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2529,6 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilga nisbatan o'rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Guliston shahri (8595,5 ming so'm), Yangiyer shahri (4798,9 ming so'm) va Sirdaryo tumanida (2862,0 ming so'm) kuzatildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Xovos tumanida (848,8 ming.so'm), Boyovut tumani (852,3 ming.so'm) va Sayxunobod tumanida (929,4 ming so'm) qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quydagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	2529,6	103,9
Guliston sh.	8595,5	104,6
Shirin sh	1684,9	103,0
Yangiyer sh	4798,9	105,2
tumanlar:		
Boyovut	852,3	98,8
Guliston	1154,2	103,8
Mirzaobod	2802,7	108,0
Oqoltin	2121,0	103,3
Sardoba	1418,8	103,9
Sayxunobod	929,4	99,5
Sirdaryo	2862,0	103,6
Xovos	848,8	101,1


Jumladan, 2019-yilning yanvar-oktabr oylari chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 %ni tashkil etib, 43,6 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,0 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

**SIRDARYO VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2019-yil yanvar-oktabr oylari)

Yanvar-oktabr oylari viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1339,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,9 %ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra 761,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,2 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 66,8 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Yangiyer shahrida (100,0 %), Shirin shahrida (99,6 %) va Sirdaryo tumanida (89,8 %) yuqori bo'lgan.

**Yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ■ Yirik korxonalar

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar 2019-yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, 378,2 mld. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,7 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 33,2 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Sardoba tumanida (98,1 %), Boyovut tumanida (92,9 %) va Xovos tumanida (92,4 %) yuqori bo'lgan.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	1139,9	98,1	378,2	86,3	761,7	105,2
Guliston sh.	390,6	97,5	31,9	54,0	358,7	105,0
Shirin sh	0,6	104,2	0,0	42,9	0,6	104,8
Yangiyer sh	23,2	104,9	0,0	0,0	23,2	104,9
tumanlar:						
Boyovut	83,5	74,4	77,5	72,8	6,0	105,4
Guliston	28,5	101,0	18,0	99,4	10,5	103,8
Mirzaobod	75,9	113,6	18,5	145,3	57,4	106,2
Oqoltin	23,3	95,5	18,3	93,5	5,0	103,8
Sardoba	63,7	81,3	62,5	81,0	1,2	105,2
Sayxunobod	136,5	105,1	95,4	105,8	41,1	103,7
Sirdaryo	285,1	105,7	29,2	105,7	255,9	105,7
Xovos	29,0	100,1	26,9	99,6	2,1	106,1

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining ulishi, (%)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida (34,4 %), Sirdaryo tumanida (25,0 %), Sayhunobod tumanida (12,0 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:71-230-86-34